

## MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH MUASSASIDA PEDAGOG KADRLAR MUAMMOSI VA UNI SAMARALI HAL QILISH YO'LLARI

**Tohir Zokirjonovich Usmanov**

Mustaqil tadqiqotchi

### ANNOTATSIYA

Maqolada pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish va uni samarali tashkil etishga qaratilgan

**Kalit so'zlar:** malaka oshirish, kadr, pedagogika, talant

### KIRISH

Ta'lim sohasi har bir jamiyatning savodxonlik darajasini belgilaydi, shuningdek u xo'jalik tarmoqlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish, madaniy va ma'muriy tuzilmalarni malakali mutaxassis kadrlar bilan ta'minlovchi, ularning rivojlanishi, istiqboliga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim soha hisoblanadi. O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, bu ishlarining ijobiy samara berishni boshlagani mamlakat ichida va tashqarisida e'tirof qilinmoqda. Mana shunday o'zgarishlar barobarida ilgari uncha e'tibor berilmagan, ta'limni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yangi fan tarmog'i – ta'lim menejmenti ancha rivojlanmoqda. Ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatayotgan ixtiyoriy muassasani menejment nuqtai nazaridan o'rganish, tahlil qilish bu sohada ham bozor munosabatlari yetarlicha shakllanib kelayotganligi e'tiborga olinganda muhim dolzarblilik kasb etadi, zero, ta'lim sohasi ham xalq xo'jaligining mustaqil sohasi sifatida alohida yondashuv – tashkil qilish, boshqaruv va nazoratni taqozo qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Menejmentning turli tashkil qiluvchilari, jumladan, ta'lim menejmenti masalalari turli olim va mutaxassislarning ishlarida o'rganilgan. Turli sohalar menejmenti bo'yicha eng muhim nazariy ma'lumotlar F.Teylor, G.Grant, A.Fayol, E.Meyo, A.Maslou, K.Ardjiris, R.Laykert, D.Mak-Gregor, P.Druker, R.Griffin, A.Smidt, J.Mill, L.Tolstoy, M.Veber, Z.Freyd, K.Levin va boshqalarining ishlarida keltirilgan. Ta'lim muassasalarida menejment masalalarini R.SH.Axliddinov,

L.V.Peregudov, M.X.Saidov, U.Rayimov, SH.Saidqulov, B.S.Nuriddinov, O.A.Abduquddusov kabi mamlakatimiz olimlari tadqiq qilishgan. Ta'lim sohasida boshqaruvni tashkil etish va tartibga solish masalalari amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi qaror, buyruq va yo'riqonmalarida o'z aksini topgan.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchilar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash mustaqil ta'lim turi sifatida e'tirof etilgan. Bu esa uni ilmiy metodik, pedagogik, psixologik-fiziologik, didaktik hamda tashkiliy, iqtisodiy jihatlarini va malaka oshiruvchi sub'ektlarning shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini hisobga olib tadqiq qilishni taqozo qiladi.

“O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining rahbar hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida tarkib topgan tizim zamon talablariga javob bermayapti”. Hozirgi kunda o'qituvchilar malakasini oshirish tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishga kechiktirib bo'lmaydigan zarurat sifatida qaralmoqda.

“Ta'lim to'g'risida”gi qonunning 16-moddasida “Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash” deb nomlanadi. Uning maqsadi “Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, kasbiy bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi” deb ta'kidlanadi. Ko'rinib turibdiki, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim tizimining eng muhim vazifasi sifatida qo'yilmoqda.

U.Raimovning “Malaka oshirish: Germaniya tajribasi va O'zbekistonda rivojlanish istiqbollari” nomli risolasida muallifning Germaniyaning Bavariya federal hududida joylashgan malaka oshirish Akademiyasida o'tagan stajirovkasi davomida olgan tassurotlari, bu muassasadagi tashkiliy va boshqaruv tizimi, shuningdek, Yaponiya, Janubiy Koreyadagi malaka oshirish tizimlari xususida keng ma'lumotlar keltirilgan. Risolada O'zbekistondagi mavjud malaka oshirish tizimi, uning istiqbollari, malaka oshirish muassasalarida ta'lim boshqaruvini tashkil etish muammolarini hal qilish yuzasida takliflar ishlab chiqilgan.

Xorij mamlakatlarida malaka oshirish tizimida allaqachon on-line tizimlarini qo'llash tendentsiyasi amal qilinayotgan bo'lishiga qaramasdan, bizda haligacha

to'g'ridan-to'g'ri malaka oshirishni tashkil qilish va boshqarishda jiddiy kamchiliklar mavjudligi tashvishlanarli holdir.

Menejmentning tarixiy nazariy asoslari o'rta asrlarga borib taqaladi. "Menejment" atamasining turlicha etimologik, masalan, "otlarni mashq qildirish", "biror narsaga mohirlik bilan munosabatda bo'lish", "uy xo'jaligini yuritish san'ati" kabi talqinlari mavjud. Bu tushunchaga turli joylarda - AQSH, Angliya, Germaniya, Frantsiya va Yaponiyada turlicha munosabat bildiriladi. "Boshqaruv san'ati" g'oyasining asosiy muallifi va ijodkori F.Teylor hisoblanadi. F.Gilbert, G.Gant, E.Meyo, M.Follet, A.Maslou, D.MakGregor, A.Fayol, M.Veber kabi olim va amaliyotchilar tomonidan menejment nazariyasi rivojlantirilgan. Amerika menejmenti nazariyasi asoslari A.Smidt, J.Mill, L.Tolstoy, M.Veber, A.Fayol, Z.Freyd, K.Levin kabi ko'plab tadqiqotchilar asosarlari orqali Yevropaga yoyilgan.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda hozirgi davr uchun amal qiladigan zamonaviy menejment o'zining murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan va davr taqozosiga (texnologiya va kommunikatsiyalar, yangi paydo bo'layotgan sohalar) ko'ra takomillashib bormoqda.

## REFERENCES

1. Gulboev A.T. Pedagogik tashxis vositasida o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. -110 b.
2. "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2012 y., 22-son, 241-modda).
3. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. /Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. -20-29-b.
4. Raimov U. Malaka oshirish: Germaniya tajribasi va O'zbekistonda rivojlanish istikbollari. –Toshkent: Iste'dod, 2004.